



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 12 (14)  
2025**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**12**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2025**

**MUNDARIJA**

<b>Юлдашев Ш.Г.</b> Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
<b>Tursunov A.M.</b> Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
<b>Umurzakova Z.S.</b> Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
<b>Axunov M.A.</b> Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
<b>Исраилова Д.К.</b> “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
<b>Шокирова Г.М.</b> Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
<b>Vaxtohonova D.N.</b> Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
<b>Xasanova X.F.</b> Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
<b>Бегимова Д.К.</b> Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
<b>Mirzayev B.S.</b> CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
<b>Mirzarahimova A.A.</b> Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
<b>Азимов О.Т.</b> Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
<b>Халмирзаев А.А.</b> Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
<b>Шоабдурахимова М.М.</b> Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
<b>Xolmuratov O.T.</b> Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
<b>Yarashev M.O., Nabieva S.A.</b> Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
<b>Кабилова К.</b> Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
<b>Махмудова С.</b> Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
<b>Захидова Ш.Ш.</b> Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
<b>Saidaxmedov N.X.</b> Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
<b>Усманова С.С.</b> Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
<b>Madrahimov U.A.</b> Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
<b>Джалилов Д.А.</b> Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
<b>Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
<b>Mahmudov Sh.N.</b> Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
<b>Ustadjalilov D.R.</b> O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
<b>Гайбуллаев Ф.</b> Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
<b>Abdurazakova F.D., Normurodov X.E.</b> Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
<b>Muxtarov M.M.</b> Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
<b>Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H.</b> Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

<b>Rahmatova N.A., Mustafayeva H.</b> O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	<b>147</b>
<b>Ахмедов Х.</b> Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	<b>154</b>
<b>Boboyev A.Ch.</b> Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	<b>159</b>
<b>Исраилов З.А.</b> Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	<b>165</b>
<b>Ikromov A.Sh.</b> Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>169</b>
<b>Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш.</b> Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	<b>175</b>
<b>Elmurodov Sh.Sh.</b> A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	<b>183</b>
<b>Axmadjonov S.S.</b> Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	<b>188</b>
<b>Sabirova Z.U.</b> Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	<b>192</b>
<b>Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R.</b> Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	<b>197</b>
<b>Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х.</b> Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	<b>203</b>
<b>Zoxidov T.M.</b> Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	<b>211</b>
<b>Nabiyeva N.M.</b> Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	<b>216</b>
<b>Sharofiddinov Sh.U.</b> Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	<b>221</b>
<b>Nurmatov Z.Sh.</b> O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	<b>225</b>
<b>Содиқов А.М., Зокиров С.С.</b> Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	<b>230</b>
<b>Narmanov U., Ikromova S.</b> Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	<b>238</b>
<b>Qutbiddinov A.B.</b> Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	<b>241</b>
<b>Qayumova Sh.S.</b> Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	<b>246</b>
<b>Turebekov A.A.</b> Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	<b>252</b>
<b>Kurbanova M.N., Azizov A.A.</b> Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>255</b>
<b>Samadova G.S.</b> O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	<b>259</b>
<b>Абдуллаева Р.</b> Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	<b>264</b>
<b>To‘uchiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	<b>268</b>
<b>Amnah Saeed J Alhindi</b> The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	<b>272</b>
<b>Fayziyev O.R.</b> O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	<b>276</b>
<b>Алимов Р.А., Султанова Л.Ш.</b> Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	<b>280</b>
<b>Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X.</b> Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	<b>284</b>
<b>Xaydarov X.U., Raxmonov D.R.</b> 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	<b>288</b>
<b>Солижонов М.А.</b> Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	<b>292</b>
<b>Rejapov X.X.</b> Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	<b>297</b>

5. Эрматов И.И. Факторы повышения эффективности производства в условиях рыночных отношений. — Scienceweb Academic Papers, 2022.
6. N.F.Zikrillaev, M.M.Shoabdurahimova, U.Kh. Kurbanova, N.Narkulov, F.Sh.Shakarov. Effect of the magnetic field, electric field, and light intensity on the parameters of recombination waves in silicon - Surface Engineering and Applied Electrochemistry, 2024, Vol. 60, No. 5, ISSN 1068-3755, p. 691-697
7. N.F. Zikrillaev, K.S.Ayupov, M.M.Shoabdurahimova, K.A.Ismaylov, N. Norkulov. The mechanism of current auto-oscillations in compensated silicon doped with impurity atoms - Science and Education in Karakalpakistan № ½ (39), 2024 ISSN 2181-9203, pp. 13-19
8. N.F. Zikrillaev, K.S. Ayupov, M.M. Shoabdurahimova, F.E. Urakova, O.S. Nematov. Self-oscillatory processes in silicon, problems and prospects for research, and their application in electronics - Surface Engineering and Applied Electrochemistry, 2024, Vol. 60, No. 1, ISSN 1068-3755, pp. 75–88.

**UDK: 334.02**

**FUTBOL MAKTABLARIMIZ RIVOJLANISHIDA XORIJ MAMLAKATLARI  
MENEJMENTI VA MARKETINGI TAJRIBASI**

**ОПЫТ МЕНЕДЖМЕНТА И МАРКЕТИНГА ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ  
НАШИХ ФУТБОЛЬНЫХ ШКОЛ**

**MANAGEMENT AND MARKETING PRACTICES OF FOREIGN COUNTRIES IN THE  
DEVELOPMENT OF OUR FOOTBALL SCHOOLS**

**Xolmuratov Oybek Tursunmuratovich**

Alfraganus university, “Moliya” kafedrası o‘qituvchisi,

**Annotatsiya**

Maqolada futbol maktablari faoliyatini takomillashtirishda xorij tajribasining ahamiyati tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlar futbol infratuzilmasi, boshqaruv modeli va marketing yondashuvlari o‘rganilib, ularning mahalliy futbol maktablariga moslashtirish imkoniyatlari baholanadi. Shuningdek, iste’dodlarni aniqlash, resurslarni boshqarish va brending strategiyalarini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** futbol maktablari, menejment, marketing, xorij tajribasi, sport infratuzilmasi, boshqaruv modeli, iste’dodlar tanlovi, resurslarni boshqarish, brending, rivojlanish strategiyasi.

В статье анализируется значение зарубежного опыта в совершенствовании деятельности футбольных школ. Рассматриваются инфраструктура, модели управления и маркетинговые подходы развитых стран, а также возможности их адаптации к местным условиям. Особое внимание уделено выявлению талантов, эффективному управлению ресурсами и укреплению брендинговых стратегий футбольных школ посредством современных инструментов.

**Ключевые слова:** футбольные школы, менеджмент, маркетинг, зарубежный опыт, спортивная инфраструктура, модель управления, отбор талантов, управление ресурсами, брендинг, стратегия развития

This article examines the importance of international experience in improving the performance of football schools. It reviews the infrastructure, management models, and marketing approaches of advanced countries and assesses their adaptability to local contexts. The study emphasizes talent identification, resource management efficiency, and branding strategies, offering practical recommendations to strengthen football schools through modern managerial and marketing tools.

**Keywords:** football schools, management, marketing, international experience, sports infrastructure, management model, talent identification, resource management, branding, development strategy.

Futbol O‘zbekistonda eng ommabop sport turi bo‘lib, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida yoshlarni ommaviy sportga jalb etish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakat aholisining qariyb uchdan bir qismini 0–14 yoshli bolalar tashkil etadi, bu esa futbol maktablari uchun juda keng demografik baza mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga, bu salohiyatni tizimli boshqaruv va zamonaviy marketing yondashuvlarisiz to‘liq ishga solish qiyinligi ham tajriba bilan tasdiqlanmoqda.

Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021 yil boshida respublikada 352 ta sport-ta‘lim muassasasi faoliyat ko‘rsatgan, ularning atigi 43 tasi qishloq joylarda joylashgan. Shu paytda umumta‘lim tizimida 10 943 ta maktab va taxminan 6,78 million o‘quvchi mavjud. Demak, professional sport maktablari tarmog‘i umumta‘lim maktablari bilan solishtirganda juda tor bo‘lib, futbol bo‘yicha ixtisoslashgan maktablar soni yoshlar soni va maktablar tarmog‘iga nisbatan cheklangan. Bu esa xalqaro tajribada keng qo‘llaniladigan yechim – futbolni aynan umumta‘lim maktablari negizida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

**1-jadval**

**O‘zbekistonda ta‘lim va sport infratuzilmasi ko‘rsatkichlari [1]**

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>Yil</b>	<b>Miqdor</b>
Umumta‘lim maktablari soni	2024/2025	10 943 ta
Umumta‘lim maktablaridagi o‘quvchilar soni	2024/2025	≈ 6,78 mln nafar
Sport-ta‘lim muassasalari (ixtisoslashgan maktablar) soni	2021	352 ta
2020–2024 yillarda yaratilishi rejalashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari	2020–2024	23 ta yangi maktab
2020–2024 yillarda yaratilishi rejalashtirilgan sport maktablari filiallari	2020–2024	68 ta filial

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, umumta‘lim maktablari tarmog‘i juda keng bo‘lishiga qaramay, ixtisoslashgan sport maktablari soni ancha kam. Hatto 2020–2024 yillarda qo‘shimcha 23 ta sport maktabi va 68 ta filial tashkil etilishi rejalashtirilgani hisobga olinganda ham, futbol bo‘yicha tizimli tayyorgarlikka jalb qilingan bolalar ulushi hali ham cheklangan bo‘lib qoladi. Bu nisbat futbol maktablarida menejment va marketingni kuchaytirish bilan birga, futbolni to‘g‘ridan-to‘g‘ri umumta‘lim maktablari muhitiga olib kirish zarurati borligini ko‘rsatadi.

Diagrammada ustunlar ko‘rinishida uchta ko‘rsatkich tasvirlanadi: 2024/2025 o‘quv yilidagi umumta‘lim maktablari soni (10 943 ta), 2021 yildagi sport-ta‘lim muassasalari soni (352 ta) hamda 2020–2024 yillarda yaratilishi ko‘zda tutilgan bolalar sport maktablari va filiallarining umumiy soni (91 ta).

Mazkur diagramma maktablar tarmog‘i va ixtisoslashgan sport infratuzilmasi o‘rtasidagi keskin tafovutni vizual ravishda namoyon etadi. Bitta sport-ta‘lim muassasasiga o‘rtacha o‘nlab umumta‘lim maktablari to‘g‘ri kelmoqda, shu bois futbol maktablari o‘z faoliyatini faqat o‘z bazasi bilan cheklab qo‘ysa, ommaviy qamrovga erishish imkoni bo‘lmaydi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli futbol akademiyalari o‘zini alohida “orolchalar” sifatida emas, balki butun ta‘lim tizimiga integratsiyalashgan tarmoq sifatida ko‘radi; ularda marketing strategiyasi ham aynan shu keng tarmoq bilan muloqotga qaratilgan bo‘ladi.

So‘nggi yillarda FIFA va UNESCO hamkorligidagi “Football for Schools” dasturining O‘zbekistonda joriy etilishi futbolni umumta‘lim maktablari bilan birlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Dastur doirasida mamlakatdagi 10 mingdan ortiq maktab va 6 milliondan ziyod o‘quvchi futbol orqali hayotiy ko‘nikmalarni o‘rganishi uchun imkoniyat yaratish maqsad qilgan. Bunda bepul raqamli ilova, o‘qituvchilar uchun metodik materiallar va jihozlar taqdim etilishi

futbolni oddiy dars jadvaliga integratsiya qilishning samarali boshqaruv modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv futbol maktablari uchun ham alohida imkoniyat: ular o‘zlarini faqat “sport maktabi” emas, balki butun hududdagi umumta’lim maktablariga xizmat ko‘rsatadigan resurs markazi sifatida brendlashi mumkin.



**1-rasm. Futbol infratuzilmasi va potensial auditoriya nisbati [2]**

Yevropa tajribasi, xususan, Amsterdamdagi Ajax akademiyasi faoliyati ham menejment va marketing nuqtai nazaridan ahamiyatli signal beradi. Ajax o‘zining TIPS modeli (Technique, Insight, Personality, Speed) asosida futbolchilarni kompleks rivojlantiradi va yoshlar akademiyasini klub biznes modelining markaziga qo‘yadi. Akademiya bir vaqtning o‘zida sport natijalarini yaxshilash va kluba moliyaviy resurs keltiruvchi “talenlar fabrikasi” vazifasini bajaradi: yetuk futbolchilarni yetishtirib, keyinchalik yirik klublarga transfer qilish orqali akademiya faoliyatini moliyaviy jihatdan barqarorlashtiradi. Bu yerda menejmentning asosiy xususiyati – uzoq muddatli rejalashtirish, yagona o‘yin falsafasi va brend atrofida izchil kommunikatsiya olib borishdir.

O‘zbekiston sharoitida bunday modelni to‘liq ko‘chirib bo‘lmasada, ayrim elementlarini futbol maktablari rivojlanish strategiyasiga moslashtirish mumkin. Avvalo, har bir futbol maktabi o‘zining “profilini” aniq belgilashi lozim: kimdir 10–12 yoshli bolalar uchun dastlabki tayyorgarlikka ixtisoslashadi, yana biri 14–17 yoshli iqtidorlarni professional futbolga tayyorlaydigan bosqichga e’tibor qaratadi. Marketing nuqtai nazaridan bu segmentatsiya ota-onalar, homiylar va mahalliy hokimiyat uchun aniq va tushunarli taklif paketini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, “hududiy iste’dodlar akademiyasi” brendi ostida ishlaydigan maktab homiylarga iqtidorlarni aniqlash va ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq obrazni taklif etadi.

Futbol maktablarining marketingida mahalla va maktab hamjamiyatini jalb etish ham muhim. “O‘zbekiston–2030” dasturi doirasida stadion va sport maydonlaridan foydalanish vaqtini uzaytirish, mahallalarda futbol, yugurish va boshqa ommaviy musobaqalar tashkil etish vazifalari belgilangan. Futbol maktablari ushbu ommaviy tadbirlarni o‘z brendini targ‘ib qilish uchun platforma sifatida ko‘rishi mumkin: ochiq eshiklar kuni, murabbiylar bilan bepul mahorat darslari, ota-onalar uchun seminarlar orqali maktab o‘zini nafaqat sport tayyorgarligi maydoni, balki bolalar tarbiyasi va sog‘lom turmush tarzining hamkoriga aylantiradi.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli akademiyalar faqat maydon va murabbiylar tayyorgarligi bilan chegaralanmaydi, balki raqamli infratuzilmani ham faol qo‘llaydi. FIFA “Football for Schools” dasturining mobil ilovasi orqali murabbiylar va o‘qituvchilar uchun mashg‘ulot ssenariylari, videodarslar va baholash vositalari taqdim etilmoqda. O‘zbekiston futbol maktablari

ham o‘z ichki boshqaruviga shunga o‘xshash raqamli platformani joriy etsa, mashg‘ulotlar sifati birxillashadi, o‘quvchilar natijalarini monitoring qilish osonlashadi va ota-onalar bilan muloqot yanada shaffof bo‘ladi. Bunday tizim marketing nuqtai nazaridan ham afzallik beradi: onlayn kabinetli maktablar ko‘zga tashlanmay qolayotgan bo‘lsa, raqamli platformaga ega maktablar kelajakda xalqaro hamkorlar uchun ham ishonchliroq ko‘rinadi.

Yana bir muhim jihat – xalqaro brendlar va klub akademiyalari bilan hamkorlik. Dunyoning ayrim mintaqalarida yirik klublar (Ajax, Barcelona, Benfica va boshqalar) lokal akademiya yoki “partner school” formatida ishlaydi, bu esa mahalliy futbol maktablariga trenerlar tayyorlash, metodika, skauting va marketing bo‘yicha tayyor paketlarni olib kirish imkonini beradi. O‘zbekiston futbol maktablari uchun bunday hamkorliklar faqat sport natijalarini emas, balki brend qiymatini oshiruvchi kuchli marketing vositasiga aylanishi mumkin. “Xorijiy klub akademiyasi bilan hamkor maktab” maqomi homiylar va ota-onalar qarorida sezilarli rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda futbol maktablari rivoji uchun asosiy masala faqat yangi stadionlar qurish yoki sport maktablari sonini ko‘paytirish emas. Mavjud demografik salohiyat va ta‘lim tizimi infratuzilmasi fonida samarali menejment, segmentlangan marketing strategiyasi, raqamli boshqaruv tizimlari va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini uyg‘unlashtirish zarur. Shundagina futbol maktablari davlat dasturlarida belgilangan maqsadlarni – sog‘lom, raqobatbardosh va global futbol bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash vazifasini to‘liq ado etishi mumkin bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
2. Jismoniy tarbiya va sport marketingi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Renessans-Edu” nashriyoti, 2024.
3. Концепция развития физической культуры и спорта Республики Узбекистан до 2025 года: Указ Президента РУз от 24.01.2020 г. № УП-5924.
4. Краснова М.Ю. Формирование осведомлённости будущих спортивных менеджеров о специфике предпринимательской деятельности в массовом спорте // Экономика и бизнес: теория и практика. 2023.
5. FIFA. Football for Schools: Programme Overview. Zurich: Fédération Internationale de Football Association, 2023.
6. FIFA. Football for Schools Comes to Uzbekistan. Zurich: FIFA, 2023.
7. AFC Ajax. Ajax Youth Academy: The TIPS Model of Talent Development. Amsterdam: AFC Ajax, 2022.
8. Arenas L. Strategic Management Approach for Elite Youth Football Academies // Sport Performance & Science Reports. 2023. No. SPSR230.
9. UNICEF Uzbekistan. Generation 2030 Uzbekistan: Investing in Children and Young People to Reap the Demographic Dividend. Tashkent: UNICEF, 2018.